

**BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISHDAGI OMILLAR**

Moxira Xikmatullayevna Muxamadaliyeva
Nizomiy nomli TDPU “Maktabgacha ta’lim metodikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola bo‘lajak pedagoglarning mavjud kommunikatsion kompitensiyasi, tashabbuskorlik, o‘z g‘oyasini ilgari sura olish kabi qobiliyatlarining takomillashtirishda ulardagи kasbiy-muhim sifatlarni belgilovchi muhim omillardan samarali foydalanish orqali ta’lim tizimidagi ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi.

Аннотация: Данная статья способствует повышению качества образования в системе образования за счет эффективного использования важных факторов, определяющих профессионально-важные качества будущих педагогов в совершенствовании их способностей, таких как коммуникативная компетентность, инициативность, умение продвигать собственные идеи.

Annotation: This article helps to improve the quality of education in the educational system by effectively using the important factors that determine the professional-important qualities of future pedagogues in improving their abilities such as communication competence, initiative, and the ability to promote their own ideas

Kalit so'zlar: kasbiy sifat, Pedagog shaxsi, bilim va ma'rifat, pedagogik tajriba, o'z ustida ishslash, kasbiy xislatlari tashkilotchilik malakalari kommunikativ malaka, ta’lim-tarbiya, ta’lim sifati, takomillashtirish, mazmun, rivojlanish.

Ключевые слова: профессиональные качества, личность педагога, знания и воспитание, педагогический опыт, работа над собой, профессиональные качества организаторские компетенции коммуникативная компетентность, воспитание, качество образования, совершенствование, содержание, развитие.

Keywords: professional qualities, personality of the teacher, knowledge and education, pedagogical experience, self-improvement, professional qualities organizational competencies communicative competence, upbringing, quality of education, improvement, content, development.

Talabaning pedagogik texnikasi – bu shunday bir malakalar yig‘indisiki, u bo‘lajak pedagogga ta’lim oluvchilar ko‘rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o‘z fikrlari va qalbini yetkazish imkonini bera oldi, dunyonni anglatadi.

Yurtimizda ayni vaqtida vujudga kelgan shart-sharoitlar bo‘lajak pedagoglarning malakasini oshirishning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o‘zgartirishlarni kiritishni taqozo etmoqda. Xususan, shu kunlarda oliv ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun pedagoglarining malakasini oshirish mazmuni va shakllarini takomillashtirish zarurati paydo bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsesiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmoni[1], 2019 yil 11 iyuldagagi «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4391-sonli qarori[2], 2020 yil 6 noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qarorlari[3] ijrosini taminlash orqali oliv ta’lim muassasalari talabalarining hamda pedagoglarning malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni nazarda tutadi.

O‘zbek millatining kelajagi, uning istiqboli ko‘p jihatdan bo‘lajak pedagoglarga, ularning saviyasi, kasbiy tayyorgarligi, fidoiyligiga, yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. Talabalardagi pedagogik salohiyat – bu tug‘ma talant yoki nasldan-naslga o‘tuvchi xususiyat emas, balki xar bir shaxsning izlanish yo‘lida olib borgan ijodiy mexnat mahsulidir. Pedagogik faoliyat zaminida ijodiy va mashaqqatli mehnat yotadi. Demak pedagogik mahorat hamma pedagoglar uchun belgilab berilgan standart, yani bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir pedagogning o‘z ustida ishlashi, izlanishi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadigan hamda rivojlanib boradigan jarayondir. Bu jarayonda esa bo‘lajak pedagogning pedagogik mahorati va o‘qish davomida olgan tajribalari malakali pedagoglarning namunali ishlarini o‘rganishi, undan ijobiy foydalana olishi va o‘z faoliyatiga tadbiq etishi ilg‘or tajribalar bilan boyitishi zarur. Pedagogning kasbiy sifati asosan, guruhli mashg‘ulotlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Sifat - bu yuqori bosqich va doimo yuksalib boruvchi tarbiya hamda o‘qitish san’atidan iborat mahorat. Pedagog - o‘z yo‘nalishining mohir ustasi, o‘z fanini chuqr anglagan uning muammolarini baratarf etish yo‘lida izlangan, nazariyani amaliyotga tadbiq etadigan, fan va san’atning mos soxalari bilan yaxshi tanish, amalda umumiyl va yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunuvchi, o‘qitish va tarbiyalash metodikasini har tomonlama biluvchi xamda yuqori madaniyatga ega bo‘lgan mutaxassisidir. Buyuk rus pedagogi A.S.Makarenko aytganidek: «Pedagog tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, yoki jahldor bo‘lishini bilishi lozim. U o‘zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin va o‘qitsin». Bunday malakaga ega bo‘lgan xar bir pedagog o‘z-o‘zini nazorat qila oladi, kasbiy faoliyati davomida sog‘lom asab

tizimini o‘zida tarbiyalay oladi, asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo‘riqishlardan o‘zini asragan holda yosh avlodga sifatli ta’lim-tarbiya berishda davom eta oladi.

Pedagoglarning kasbiy sifatlarini oshirishga qaratilgan omillar:



Pedagog shaxsi: pedagogdagi mavjud kommunikatsion kompitensiya, tashabbuskorlik, o‘z g‘oyasini ilgari sura olish kabi qobiliyatlarining shakllanganligi ulardagi kasbiy-muhim sifatlarni belgilovchi muhim omillardan sanaladi. Shuningdek, pedagog shaxsi o‘z kasbiy yo‘nalishi tarkibidagi predmetga asoslanadi, intelligent shaxs, ta’lim oluvchilarni qo‘llab-quvvatlash hamda motivatsiyalari yetakchilik qila oladigan mukammal inson bo‘lishi zarur. Darhaqiqat, pedagoglar to‘g‘risida ijtimoiytarixiy ta’limotlarni o‘rganar ekanmiz, sharqning buyuk allomalari va ma‘rifatparvarlari hisoblangan Al-Xorazmiy, Al-Forobi, Al-Beruniy, Ibn Sino, A.Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Furqat, A.Avloniy va boshqa bir qator mutafakkirlarning asarlarida ularning madaniyati, ilg‘or ta’limiy va tarbiyaviy qarashlari, o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda pedagogning shaxsiy va kasbiy fazilatlari, ularning burchi, vazifalari va odobi, ustoz bilan shogird munosabatlari, o‘qitish sharoitlari va boshqalar haqida qimmatli fikrlar bayon qilingan.

M.G.Davletshin ayni vaqtida ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogda pedagogning shaxsiga, kasbiy faoliyatiga xos xislat va fazilatlarning mujassam bo‘lishi, ulardan ta’lim berish va tarbiyalash jarayonida o‘rinli, me’yorida foydalana olish zarurligini nazarda tutadi. Ular:

- 1) pedagogning shaxsiy xislatlari,
- 2) kasbiy bilimi,
- 3) kasbiy xislatlari,
- 4) shaxsiy pedagogik uddaburonligi,
- 5) tashkilotchilik malakalari,
- 6) kommunikativ malakalari,

7) ijodiy xislatlari ekanligini ko‘rsatib o‘tadi.

Bilim va ma’rifat, har qanday ishni bajarishdan oldin mushohada yuritish, oqu-qorani farqlay olishga o‘rgatadi. Ta’lim-tarbiyada eng avvalo bilim-ta’limning asosini tashkil etadi. Tarbiya bu ko‘nikma hosil qilish, muayyan tartib-qoida, odat va etiketlarni o‘zida mujassamlashtiradigan jarayon. Ammo bu mushkul vazifani inson o‘z holicha mustaqil ravishda o‘zida shakllantira olmaydi. Shuning uchun ham muallim-ta’lim beruvchi, ustoz-o‘rgatuvchi, piri komil-ibrat bo‘luvchilarga ehtiyoj seziladi. O‘tmish ajdolarimiz qoldirgan ma’naviy meros ushbu ehtiyojni qondirishga yordam beradi[4].

Bugungi kunda yaxshi ahloq bilan birga yaxshi bilimdon, huquqiy jamiyatning haqiqiy fuqarosi ya’ni qonunlarni xurmat qilib, qonunlar doirasida faoliyat yurituvchi ma’suliyatli shaxsni qadrlanishini bilamiz. Adolat va sahovat tuyg‘usi, ilm-hikmat va himmat bilan uyg‘unlashsa ayni muddao bo‘lur edi.

Xalqimizda pedagoglar bog‘bonga qiyos qilinadi, ular yoshlik bog‘ining bog‘boni. Pedagog bu niholni ehtiyot qilib parvarishlaydi, oqil, barkamol qilib tarbiyalaydi, ta’lim beradi. Pedagog kasbining faxr va iftixor bilan e’zozlanishining boisi ham shundaki, biror soha yo‘qlik unga o‘qituvchi hissa qo‘shmagan bo‘lsa. Inson hayoti davomida pedagog bilimidan, aql-zakovatidan, mehr-muhabbatidan bahramand bo‘lmay qolmaydi.

Ma’rifat insonning ijobiy sifatlari majmuidir. Bilim va ma’rifat bir-biri bilan uzviy bog‘liq jarayondir. Ma’rifat alohida shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi ahloqiy kategoriyadir. Bilim va ma’rifatli shaxsni xulq-madaniyatini shakllanganlik darajasini shaxsning bilim saviyasi, nutq madaniyati, kasbiy bilimdonligi, boshqaruvchilik qobilyati, tashkilotchilik mahorati va yuksak ma’naviyat belgilaydi.

Pedagogik tajriba, pedagogik ijodkorlik manbaidir. Pedagogik tajriba - muammoli vaziyatlarga boy va kishini mushohada qilishga undaydigan jarayondir. Ilg‘or pedagogik tajriba deganda, biz pedagogning o‘z kasbiy faoliyatidaga vazifalariga ijodiy yondoshishini biladigan, ta’lim oluvchilarning ta’lim-tarbiyasiga zamonaviy bilimlar berish orqali ta’sir qila oladigan, talim berishning samarali yo‘l va vositalarni izlab topishni va yangilarini yarata olish qobilyatiga ega shaxs namayon bo‘ladi. Tajribaga ega pedagog nafaqat muvaffaqiyatli o‘qitish balki tarbiya berish, ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish bilangina cheklanib kolmasdan taraqqiyotchilik ko‘nikma va malakalarga ham ega bo‘lish zarur. Hozirgi fan va texnika jadallahuvi zamonida pedagogdan uning ijodkor bo‘lishini, erkin fikr yurita olishini hamda fikrlarini amaliyotga tadbiq eta olishini talab qiladi. Pedagogik tajribani takomillashtirishda ilmiy pedagogik ma’lumotlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki, xozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti pedagogning ijodkor bo‘lishini fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, va ta’lim oluvchilarni xam ijobiy fikrlash, tadqiqotchilik ishlarini o‘rgata olishini talab kiladi.

Pedagogning mahorati quyidagilarda namayon bo‘ladi:

Ijobiy hatti-harakatlarga
to’sqinlik qilmaslik

Talablari aniq va tushunarli
bo‘lish, qo'yilgan talab va
vazifalarni natijasini bilish

Talabni ochiq chehra,
samimiyo ohangda berish

Murojaat vaqtida
kesatmaslik, minnat
qilmaslik

Berilayotgan vazifa ta’lim
oluvchining yoshi, bilim
saviyasiga mos bo‘lishi

O‘z ustida ishslash xalqimizning kelajagi, O‘zbekistonning istiqboli ko‘p jihatdan pedagogning saviyasi, tayyorgarligi, fidoiyligiga, yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. Albatta bunda pedagog talabchan, mexribon, sabrli, og‘ir-bosiq va o‘z kasbiga nisbatan e’tiqodli bo‘lishi lozim. Talabani butun qalbi bilan sevadigan pedagog ko‘proq tabassum qiladi, kamroq qovoq soladi. Talabalarga bilim berish bilan birgalikda ayni vaqtda ularga o‘z xarakterini o‘tkaza oladi, ularga odamiylik namunasi bo‘lib ko‘rinadi.

O‘z ustida ishslash quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish,
- faoliyatga tanqidiy va ijobiy yondashish,
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish,
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish,
- salbiy odatlarni bartarf etib borish,
- ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish.

Xulosa qilib aytganda kasbiy mahorat tarbiyaning mohiyatini va shaxsni har tomonlama taraqqiy ettirishda tarbiyaning rolini ochib beradi, tarbiyaning maqsadi, mazmuni, usullari, uni tashkil etishdagi shakllari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni ko‘rsatadi: shuningdek kasbiy mahorat o‘z taraqqiyoti davomida ta’lim-tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari yo‘llarini yoritib beradi, tarbiyaviy ishlarning shakllarini ko‘rsatib beradi. Pedagogning kasbiy mahorati shunday bir malakalar yig‘indisidirki, u pedagogga tarbiyanuvchilar ko‘rib va eshitib turgan narsalar orqali o‘z fikrlarini samarali yetkazish imkonini beradi. Pedagog va ta’lim oluvchi muomilasida har bir narsa hurmat va talabchanlikka asoslanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsesiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmoni.
2. 2019 yil 11 iyuldagи «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4391-sonli qarori.
3. 2020 yil 6 noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qarori
4. <http://www.marifat.uz/marifat/index>.
5. Махкамов, У., Жуманова, Ф., & Равшанов, Ж. (2020). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШГА ТАЙЁРЛАШ. Academic research in educational sciences, (3), 815-830.
6. Akramova, D. (2022). Bo'lajak pedagog-psixologlarning mактабгача ta'lim tizimidagi faoliyati. Science and innovation, 1(B8), 322-326.
7. Akramova, D. (2022). Oliy ta'lim muassalari talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. Science and innovation, 1(B8), 2150-2153.
8. Abdieva, F. (2022). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ДИРЕКТОРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ МАДАНИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Science and innovation, 1(B8), 2154-2156.
9. Ёзиева, У., & Абдиева, Ф. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkiloti samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muammolari. Общество и инновации, 2(11/S), 111-114.